
Akademik litsey o'quvchilari muzeyga sayohat qilishdi

Akademik litsey o'quvchilari **19-sentabr kuni** Samarqand shahridagi "**Qatag'on qurbonlari xotirasi**" muzeyiga akademik litseyning **Tarix fani o'qituvchisi U.Ortiqov** boshchiligida sayohat qilishdi. O'quvchilar ushbu sayohat davomida Turkistonda jadidchilik harakati va jadidchilik harakati namoyondalari, ularning faoliyati bilan yaqindan tanishishdi.

Shuningdek, litsey o'quvchilariga Turkistonda ilm-fan va madaniyatning rivojlanish tarixi haqida ham ma'lumot berildi. Bunday ekskursiyalarning tashkil qilinishi o'quvchilarning bilim ko'nikmasini mustahkamlash va oshirishdagi eng samarali usullardan biri bo'ldi.

